

**MAKTABLARDA PEDAGOGLARGA QO'YILADIGAN  
TALABLARNING PSIXOLOGIK TALQINI**

*S-Xodjaeva Dilnoza Maxmudjanovna*

*Toshkent shahar Olmazor tumani 315-sonli umumta'lif maktabi amaliyotchi  
psixologi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada o'qituvchining shaxsiga, kasbiy bilimdonligiga qo'yiladigan mezon va talablar, ta'lif samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'rni, pedagogik faoliyatda, shaxslararo munosabatlar jarayonidagi muloqot ko'nikmalari, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahorat, pedagogik nazokat kabi sifatlarini tarbiyalash xususida to'xtalindi. Shu boisdan bu mavzu tadqiqotchilar, tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar uchun muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik maqsad va vazifa, metod, pedagogik faoliyat, ta'lif-tarbiya

**KIRISH**

Pedagog uchun qo'shimcha, lekin nisbatan turg'un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy o'rinda turmasada, ammo o'qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi. Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalalar jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir o'qituvchi ajoyib va o'ziga xos shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'lik xislatlariga qaratilganligidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lif to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan

foydanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

## **MUHOKAMA**

Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda ham o‘quv faoliyatdagi kabi motivatsion soha ajratilib ko‘rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlardir. Tashqi motiv sifatida biror-bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o‘z faoliyatining jarayoni va natijasiga e’tibor berishni misol qilish mumkin. Pedagogik faoliyat pedagogik vaziyatdagi turli-tuman xatti-harakatlarning umumlashmasidan iborat: perceptiv, mnemik, kommunikativ, izlanuvchanlik, nazorat qilish, baholash va h.k. Ushbu turlituman faoliyatlarning jamlanmasi bir qancha psixologo-pedagogik funksiyalarni belgilab beradi. P.F.Kapterev o‘qituvchiga xos bo‘lgan obyektiv va subyektiv xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tadi. Umumiy ko‘rinishda u quyidagicha aks etadi:

1. Kasbiga xos bilimi: ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, ayniqla yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi, etnopsixologik bilimlarni egallashi, hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi, hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi, maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi, o‘z fanini o‘qitish metodikasini bilishi, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etishning samaradorligini bilishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.
2. O‘z kasbiga xos xislatlari: o‘qituvchining kuzatuvchanligi, o‘z diqqate’tiborini taqsimlay olishi, pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi, o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lishi, o‘zini qc‘lga ola bilishi, o‘zini tuta olishi, pedagogik takt, nutqning emotsiyal ifodalanishi;
3. Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg‘ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi, ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarning bilimi o‘sishini istiqbolli ravishda

rejalashtira olishi, pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtira olish, bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o‘z faoliyatini rejalashtirishni bilishi, o‘quv maqsadlarini rejalashtira olishi; o‘zining ta’lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

4. Tashkilotchilik malakalari: bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi, bolalarni nimalar bilandir qiziqtirib, ularni faollashtira olishi, amaliy masalalarni hal etishda o‘zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo’llay olishi.

5. Kommunikativ malakalari: bolalarni o‘ziga jalgan etishni bilishi; bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi, bolalarning jamoalararo va jamoa ichidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog’lashni bilishi.

6. Gnostik malakalari: bolalarning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi, o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, boshqa o‘qituvchilarning tajribalarni o‘rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to‘g‘ri xulosa chiqara olishi, psixologik-pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi, o‘quvchilarni to‘g‘ri tushunib, ularninig xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi.

7. Ijodiy xislatlari: pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi, o‘quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshira olish qobiliyati, o‘zini o‘quvchi o‘rniga qo‘yib, bo‘lib o‘tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi; avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati, o‘zining o‘quvchiga pedagogik ta’siri natijalarini oldindan ko‘ra bilishga intilishi.

Shunday qilib, ko‘rsatib o‘tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi: shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo‘nalishi; pedagogik mahorat va qobiliyati; xarakterining psixologik xususiyatlari; bilish faoliyati; o‘qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti. Professiogramma yoshlarga o‘zlarining kelgusida o‘qituvchilik

kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi. Professiogrammani kasbga xos ravishda o'qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko'nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyati va shaxsiy xislatlariga bog'liq ekanligini albatta ko'rsatish zarurdir. Pedagogik faoliyat tezligi va muvaffaqiyati asosida N.V.Kuzmina o'qituvchilarni uch guruhga boladi:

1. Kasbiy malakalarni tez o'zlashtiradi, o'z faoliyatida tezda muvaffaqiyatga erishadi, dars qoldirmaydi.
2. Kasbiy sifatlarni sekin o'zlashtiradi, ba'zan dars qoldiradi, ammo pedagogik xususiyatlarni sekin-asta bo'lsa-da o'zlashtirib oladi.
3. Ko'p yillik faoliyati davomida ham o'qituvchilik qobiliyatini egallamaydi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatga murakkab dinamik sistema sifatida qaraydi. A.I.Sherbakov ishlarida esa pedagogik ta'lim muammolari ko'zga tashlanadi. O'qituvchi shaxsi yo'nalganligining shakllanishi masalasida to'xtalar ekan, muallif o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitish jarayonida e'tiborga olish zarur bo'lgan vaziyatlar xususida o'z tavsiyalarini beradi. Ayniqsa, olim bo'lajak o'qituvchi xulq-atvor xususiyatlarining shakllanishiga asosiy e'tiborni qaratadi. Pedagog doimo psixologik jihatdan o'z ustida ishlashi kerak. Uni muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo'nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishi darkor, ular tarbiya va ta'lim bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Bu ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi shuningdek, psixologiya va boshqa fanlar chegarasidagi tibbiyot, patopsixologiya, psixofiziologiya va psixoterapiya. Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat - bu o'zo'zini boshqarishdir, ya'ni o'z psixik holati va xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir. O'z-o'zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o'z ichiga oladi: Sezgi, idrok, diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq shuningdek shaxs xislatlari - xulq atvori, emotSIONAL holati, vaziyatga

munosabati.

Hozirgi zamон мактаби муallimlik shaxси va kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda. Ana shunday qator muammolarni oqilona hal qiliшning eng muhim omillaridan biri o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan mamlakatimiz ta'lifi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'naliшlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilar bilan ta'lim va tarbiyaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'ya oladi. O'qituvchining shaxsiy namunasi va obro'-e'tibori ta'lim-tarbiya jarayonida bolada qat'iy nuqtayi nazarning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

## XULOSA

O'qituvchi eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o'rgatishi, o'quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o'zining kimligini namoyish etishiga yordamlashishi zarur. Buning uchun o'qituvchi shaxsiy hamda kasbiy sifat va fazilatlarni to'liq egallagan bo'lishi lozim, bunday o'qituvchilar o'quvchilar bilan ko'proq do'stona muloqotda bo'ladilar, o'zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O'qituvchi bu o'rinda butun e'tiborini mavzu mohiyatini o'quvchilarga singdirishga qaratib, o'quvchilar e'tiborini kechinmalarini va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida e'tiborga oladi. O'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bilimdonlik, ijodkorlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyati uchun mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etish o'quvtarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashning eng muhim omillaridir. Talabalarda kasbni egallahning shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi bilan bog'liqdir. Ularda ana shunday sifat va kechinmalar to'la shakllangan bo'lsa, bilimlarni egallah yoki kasbiy kamoloti uchun hech narsa to'siq bo'la olmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. — T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. —
- T.:O'zbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash.